# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## *(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)*

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 591,6 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 219,4 mln AQSH dollariga yoki 59,0 %ga ko'paygan.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-sentabr, mln AQSh dollari)***



| | 2021- yil | 2022- yil | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | 372,2 | 591,0 | 159,0% | X |
| **Eksport** | 165,9 | 199,3 | 120,1% | 100,0 |
| *tovarlar* | *153,4* | *187,3* | *122,1* | *94,0* |
| *xizmatlar* | *12,5* | *12,0* | *95,7* | *6,0* |
| | | | | |
| **Import** | 206,2 | 392,3 | 190,2% | 100,0 |
| *tovarlar* | *206,2* | *392,3* | *190,2* | *100,0* |
| | | | | |
| **Saldo** | -40,3 | -193,0 | x | x |

Eksport hajmi 199,3 mln AQSH dollari (20,1 %ga ko‘paygan) bo‘lib, import hajmi 392,3 mln AQSH dollarini (90,2 %ga ko‘paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 193,0 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
***(2022- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***

**Braziliya**
TSA – 142,4
Eksport – 0,0
Import – 142,4

**Rossiya Federatsiyasi**
TSA – 118,7
Eksport – 73,5
Import – 45,2

**Turkiya**
TSA – 94,9
Eksport – 22,5
Import – 72,4

**Xitoy Xalq Respublikasi**
TSA – 84,6
Eksport – 8,3
Import – 76,3

**Qozog‘iston**
TSA – 41,0
Eksport – 37,7
Import – 3,3

**Qirg‘iziston**
TSA – 27,5
Eksport – 27,0
Import – 0,5

**Turkmaniston**
TSA – 8,3
Eksport – 3,1
Import – 5,5

**Germaniya**
TSA – 7,6
Eksport – 1,5
Import – 6,1

**Belarus Respublikasi**
TSA – 6,8
Eksport – 1,6
Import – 5,2

**Pokiston**
TSA – 6,7
Eksport – 6,4
Import – 0,3

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha jahonning 122 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (24,1 %), Rossiya Federatsiyasi (20,1 %), Turkiya (16,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,3 %), Qozog‘iston (6,9 %) davlatlariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishlarga import tovarlarning oʻrnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)***

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Braziliya** | **6,4** | **0,0** | **142,4** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 6,4 | 0,0 | 142,4 |
| Saldo | -6,4 | 0,0 | -142,4 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **107,4** | **77,6** | **118,7** |
| Eksport | 36,4 | 47,8 | 73,5 |
| Import | 71,0 | 29,8 | 45,2 |
| Saldo | -34,6 | 18,0 | 28,3 |
| **Turkiya** | **39,3** | **59,2** | **94,9** |
| Eksport | 14,1 | 18,8 | 22,5 |
| Import | 25,2 | 40,4 | 72,4 |
| Saldo | - 11,1 | -21,6 | -49,9 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **51,1** | **97,3** | **84,6** |
| Eksport | 8,1 | 19,0 | 8,3 |

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Import | 43,0 | 78,3 | 76,3 |
| Saldo | -34,7 | -59,3 | -68,0 |
| **Qozog‘iston** | **21,5** | **21,3** | **41,0** |
| Eksport | 19,1 | 15,5 | 37,3 |
| Import | 2,4 | 5,8 | 3,3 |
| Saldo | 16,7 | 9,7 | 34,4 |
| **Qirg‘iziston Respublikasi** | **34,0** | **30,2** | **27,5** |
| Eksport | 33,7 | 30,0 | 27,0 |
| Import | 0,3 | 0,2 | 0,5 |
| Saldo | 30,7 | 28,8 | 26,5 |
| **Turkmaniston** | **6,4** | **8,1** | **8,3** |
| Eksport | 2,7 | 4,6 | 3,1 |
| Import | 3,7 | 3,5 | 5,2 |
| Saldo | -1,0 | 1,1 | -2,1 |
| **Germaniya** | **3,5** | **4,8** | **7,6** |
| Eksport | 0,3 | 0,3 | 1,5 |
| Import | 3,2 | 4,5 | 6,1 |
| Saldo | -2,9 | - 4,2 | -5,6 |
| **Belarus Respublikasi** | **2,2** | **2,3** | **6,8** |
| Eksport | 0,7 | 1,0 | 1,6 |
| Import | 1,5 | 2,2 | 5,2 |
| Saldo | -0,8 | -1,3 | -3,6 |
| **Pokiston** | **0,2** | **5,5** | **6,7** |
| Eksport | 0,0 | 4,6 | 6,4 |
| Import | 0,2 | 0,9 | 0,3 |
| Saldo | -0,2 | 3,7 | 6,1 |



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**

***(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi, %da)***

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,5 %ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida 2021 - yilning shu davriga nisbatan 73,3 foizga ko‘paygan va jami TSAdagi ulushi 65,5 %ni tashkil etdi.

# XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
***(2022- yil yanvar-sentabr)***

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 145 tani tashkil etib, ular tomonidan 199,3 mln AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 20,1 %ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 94,0 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (43,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (30,5 %), turli xil tayyor buyumlar (15,6 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)***




- **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 30,5**
- **Ichimliklar va tamaki – 0,0 %**
- **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 1,9 %**
- **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 1,7 %**
- **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,7 %**
- **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,3 %**
- **Sanoat tovarlari – 43,2 %**
- **Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 0,1 %**
- **Turli xil tayyor buyumlar – 15,6%**
- **Xizmatlar – 6,0 %**

# MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-sentabr)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln.AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **199,3** | **120,1** | **100,0** | **148,2** | **139,8** | **100,0** | **51,0** | **85,2** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 60,7 | 120,6 | 30,5 | 52,9 | 128,5 | 35,7 | 7,9 | 85,2 | 15,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | - | 0,0 | 0,0 | - | 0,0 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3,8 | 57,8 | 1,9 | 0,9 | 63,0 | 0,6 | 2,9 | 56,3 | 5,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 3,4 | 17,0 m. | 1,7 | 2,5 | 18,7 m. | 1,7 | 0,9 | 13,7 m. | 1,7 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,3 | 19,1 m. | 0,7 | 0,3 | 3,9 m. | 0,2 | 1,1 | - | 2,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,6 | 76,1 | 0,3 | 0,6 | 114,5 | 0,4 | 0,0 | 1,5 | 0,0 |
| Sanoat tovarlari | 86,2 | 104,8 | 43,2 | 53,0 | 127,0 | 35,8 | 33,2 | 81,8 | 65,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 71,5 | 0,1 | 0,1 | 39,9 | 0,1 | 0,1 | 12,7 m. | 0,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 31,1 | 2,4 m. | 15,6 | 30,0 | 2,3 m. | 20,3 | 1,0 | 12,5 m. | 2,0 |
| Xizmatlar | 12,0 | 95,7 | 6,0 | 7,9 | 99,6 | 5,3 | 4,1 | 88,9 | 8,0 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va turli hil tayyor buyumlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mashinalar va transport asbob-uskunalari , kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, %da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 30,6 | 30,4 | 30,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | - | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 10,4 | 4,0 | 1,9 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 0,0 | 0,1 | 1,7 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,7 | 0,0 | 0,7 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,4 | 0,5 | 0,3 |
| Sanoat tovarlari | 36,1 | 49,6 | 43,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | 0,2 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 16,1 | 7,7 | 15,6 |
| Xizmatlar | 4,5 | 7,5 | 6,0 |



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***

2022- yilning yanvar-sentabr oylarii yakunida tovar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 36,6 %), Qozogʻiston (18,9 %), Qirgʻiziston (13,5 %), Turkiya (11,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (4,2%), Pokiston (3,2 %) va Tojikiston (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 89,6 foizni tashkil etmoqda.



**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, %da)***




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikasi o'rin egallagan.

**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**
***(yanvar-avgust)***

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O'sish sur'ati, %da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 47,8 | 73,5 | 131,2 | 153,9 | 1 | 1 |
| Qozog'iston | 15,5 | 37,7 | 81,0 | 2,4 m. | 5 | 2 |

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, %da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 30,1 | 27,0 | 89,1 | 89,7 | 2 | 3 |
| Turkiya | 18,8 | 22,4 | 132,9 | 119,6 | 4 | 4 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 19,0 | 8,3 | 2,3 m. | 43,7 | 3 | 5 |
| Pokiston | 4,6 | 6,4 | 93,1 m. | 139,8 | 7 | 6 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)***

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog‘iston | | Qirg‘iziston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Jami eksport | 47,8 | 73,5 | 15,5 | 37,7 | 30,1 | 27,0 | 18,8 | 22,4 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 14,0 | 26,7 | 9,0 | 25,6 | 13,6 | 0,0 | 0,5 | 0,2 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | 0,0 | - | - | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,3 | 0,6 | 0,0 | 0,2 | 0,6 | 0,0 | 1,2 | 0,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 0,1 | 2,5 | 0,0 | 0,0 | - | - | 0,0 | 0,3 |

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog'iston | | Qirg'iziston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | **2022- y.** |
| Hayvon va o'simlik lar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | - | 0,0 | - | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,0 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,3 | - |
| Sanoat tovarlari | 27,4 | 33,9 | 2,4 | 3,9 | 7,2 | 8,8 | 16,6 | 20,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,2 | 0,0 | 0,0 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,3 | 3,7 | 3,5 | 7,9 | 8,4 | 18,0 | 0,1 | 1,0 |
| Xizmatlar | 5,6 | 6,0 | 0,6 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 0,0 |

Xizmatlar eksporti hajmi 12,0 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,0 %ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 95,7 foizga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (56,6%), safarlar (turizm) (24,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (18,5%) hissasiga to'g'ri kelgan.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi %da)***





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 59,4 mln dollar qiymatli yoki 117,2 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 28,3 mln AQSH dollariga teng 68,2 ming tonna sabzavot, shuningdek, 15,8 mln AQSH dollari qiymatidagi 25,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 29,8 %ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)***




Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajribaga ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (45,2 %), Qozog‘iston (42,0%) va Pokiston (9,0%) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI
## *(2022- yil yanvar-sentabr)*

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning import hajmi 392,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 90,2 %ga ko‘paygan.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (38,8%), mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,9 %), sanoat tovarlari (7,2 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari 7,2 %) , turli xil tayyor buyumlar (4,1 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, %da)***



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 38,8 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 7,2 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 1,4 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,5 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 2,8 %
- Sanoat tovarlari – 7,2 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 37,9 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 4,1 %

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 186,0 mln AQSH dollariga ko‘paygan va 392,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-sentabr)***

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **392,3** | **190,2** | **100,0** | **61,9** | **134,6** | **100,0** | **330,4** | **2,1 m.** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 152,3 | 10,1 m. | 38,8 | 5,8 | 62,6 | 9,3 | 146,5 | 25,3 m. | 44,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 2,4 m. | 0,0 | 0,1 | 2,4 m. | 0,2 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 28,2 | 137,0 | 7,2 | 26,0 | 148,3 | 42,0 | 2,3 | 73,4 | 0,7 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 5,4 | 3,2 m. | 1,4 | 3,0 | 2,7 m. | 4,9 | 2,4 | 4,1 m. | 0,7 |
| Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | 2,1 | 121,2 | 0,5 | 1,8 | 107,3 | 2,9 | 0,3 | 5,9 m. | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 11,1 | 82,3 | 2,8 | 4,7 | 149,8 | 7,6 | 6,4 | 61,7 | 1,9 |
| Sanoat tovarlari | 28,3 | 2,2 m. | 7,2 | 8,8 | 175,0 | 14,3 | 19,4 | 2,4 m. | 5,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 148,8 | 186,2 | 37,9 | 9,7 | 2,6 m. | 15,6 | 139,1 | 182,4 | 42,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 15,9 | 26,2 | 4,1 | 2,0 | 44,2 | 3,2 | 13,9 | 24,8 | 4,2 |




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, %da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 26,6 | 7,3 | 38,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 10,8 | 10,0 | 7,2 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 1,0 | 0,8 | 1,4 |

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 2,5 | 0,8 | 0,5 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 5,2 | 6,6 | 2,8 |
| Sanoat tovarlari | 6,4 | 6,3 | 7,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 29,3 | 38,7 | 37,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 18,2 | 29,5 | 4,1 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***



2022- yil yanvar-sentabr oylarida import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda Braziliya,Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Germaniya hamda Hindiston o‘rin egalladi.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI**
***(yanvar-avgust)***

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Braziliya | - | 142,4 | - | - | 53 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 78,3 | 76,3 | 182,2 | 97,5 | 1 | 2 |
| Turkiya | 40,4 | 72,4 | 160,3 | 179,2 | 2 | 3 |
| Rossiya Federatsiyasi | 29,8 | 45,2 | 42,1 | 151,6 | 3 | 4 |
| Hindiston | 0,5 | 6,1 | 19,5 | 11,6 m. | 20 | 5 |
| Germaniya | 4,5 | 6,1 | 140,8 | 137,4 | 7 | 6 |
| Turkmaniston | 3,5 | 5,2 | 93,2 | 149,1 | 9 | 7 |



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2022- yil yanvar-sentabr)***



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga 52 ta xorijiy davlatdan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Germaniya va Turkmaniston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 353,8 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 90,2 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (62) 224-65-09**